


## TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

### ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr\*)


Viloyatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qarorlari mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Kelgusida ular jahon bozorida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladilar.

Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar borasida, 2019 yil yanvar-oktabr oylari hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2081,8 million dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 31,2 % ga o‘tdi. Shu jumladan, eksport 477,9 mln. AQSh dollar (o‘shish sur‘ati - 60,8%), import esa 1603,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi (o‘shish sur‘ati - 24,4 %). Tashqi savdo balansi 1125,9 mln. AQSh dollari miqdoridagi passiv qoldiq qayd etildi.









\*Dastlabki ma'lumotlar asosida

2019-yil yanvar-oktabr oylari yakunida Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 34737,7 mln. AQSh. doll., eksport 14812,9 mln. AQSh. doll. ni tashkil etgan. Viloyatining respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 6,0 %, eksportda 3,2 %, importda esa 8,0 % ni tashkil qildi.



Viloyatimiz dunyoning 67 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshiradi. Dunyo mamlakatlari orasida uning tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi Koreya Respublikasi (51,6 %), Xitoy (11,8 %), Rossiya Federatsiyasi (9,1 %), Qirg‘iziston (9,0 %), Qozog‘iston (5,9 %), AQSh (2,2 %), Turkiya (2,0 %) va boshqa davlatlar 8,4 %.






2019-yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra viloyatning tashqi savdo aylanmasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan tashqi savdoda eksport ulushi 22,6 foiz darajaga o‘tdi.

2019-yil yanvar-oktabr oylari natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 525,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1,5 % dan ortdi.

Viloyatning qo‘shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi o‘zaro savdo-sotiqqa ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. MDH mamlakatlari bilan savdoning qariyb 25,2 foizi qo‘shni davlatlar tomonidan amalga oshiriladi, shundan eksportning 72,2 foizi va importning 11,2 foizi qo‘shni davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oyilarida viloyatning MDH va boshqa davlatlarning tashqi savdo aylanmasida ulushi, foizda



Hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlari orasida Rossiya, Qirg‘iziston va Qozog‘iston davlatlari, tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 25,2 foizni






tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Janubiy Koreya, Xitoy, Germaniya, AQSH, Turkiya, Shveysariya, Italiya, Chexiya va Braziliya davlatlari hisoblanadi, ularning ulushi 74,8 foizni tashkil qiladi.

### Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi










(2019-yil yanvar-oktabrida, foizda)



### Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi

Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi mln. AQSH dollar;	O'tgan yilga nisbatan foiz hisobida	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, %
	1074,2	122,3	51,6
	246,0	125,6	11,8
	188,4	110,3	9,1



	Qirg'iziston	187,4	211,4	9,0
	Qozog'iston	123,0	164,1	5,9
	AQSH	45,8	536,6	2,2
	Turkiya	42,3	119,3	2,0
	Shveysariya	17,6	81,3	0,8
	Germaniya	15,8	221,5	0,8
	Italiya	11,4	175,6	0,5
	Chexiya	10,2	148,0	0,5
	Braziliya	9,8	149,4	0,5

### Viloyat tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha taqsimlanishi

Qit'lar nomi	2019-yil yanvar-oktabrda (mln. AQSH dollar)		Tashqi savdo aylanmasi	
	Eksport	Import	O'tgan yilga nisbatan foiz hisobida	Jamiga nisbatan foizda
<b>Jami:</b>	<b>477,9</b>	<b>1603,9</b>	<b>131,2</b>	<b>100,0</b>
Yevropa	85,6	256,1	117,6	18,3
Osiyo	391,8	1285,9	131,3	80,5
Amerika	0,5	61,7	3,4 m.	1,2
Afrika	0,0	0,2	294,4 m.	0,0





### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarining asosiy ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlar nomi	Ro'yxatga olingan (birlik)	Ishlayapti (birlik)	Vaqtincha ishlayapti (birlik)	Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH doll.)	Eksport (mln. AQSH doll.)	Import (mln. AQSH doll.)
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>301</b>	<b>291</b>	<b>10</b>	<b>374144,2</b>	<b>136307,5</b>	<b>237836,7</b>
Andijon sh.	116	114	2	196259,0	24 092,1	172 166,9
Shahrixon	21	19	2	5113,3	3528,5	1 584,8
Andijon	27	27	-	4443,9	2 950,9	1 493,0
Asaka	17	17	-	7884,6	336,3	7548,3
Oltinko'l	16	16	-	17499,4	9 007,1	8 492,3
Qo'rg'ontepa	10	8	2	78,6	-	78,6
Baliqchi	13	12	1	33933,0	33231,0	702,0
Marhamat	12	12	-	3142,9	2 117,2	1 025,7
Izboskan	8	8	-	38989,9	37635,8	1 354,1
Buloqboshi	13	12	1	3781,5	886,4	2 895,1
Xonobod sh.	13	13	-	57747,8	19704,9	38 042,9
Jalaquduq	8	7	1	1504,2	469,8	1 034,4
Paxtaobod	7	6	1	-	-	-
Xo'jaobod	7	7	-	1702,4	1 026,3	676,1
Ulug'nor	6	6	-	456,0	-	456,0
Bo'z	7	7	-	1607,7	1321,2	286,5

Viloyatda chet el sarmoyasi ishtirokida jami 301 ta korxonalar mavjud bo'lib, shundan, joriy yilning shu davriga kelib 291 ta korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda, qolgan 10 ta korxonalar vaqtincha faoliyatini to'xtatgan. Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarining tashqi savdo aylanmasi jami 374,1 mln. AQSH dollar, viloyat tashqi savdosidagi ulushi 18,0 % ni tashkil qildi. Eksport 136,3 mln. AQSH dollar, import 237,8 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.



**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,  
jamiga nisbatan ulushi foizda  
(2019-yil yanvar-oktabr)**



2019-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat eksportining hajmi 477,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 60,8 % ga yetdi). Eksport qilinadigan mahsulotlar ulushi 99,3% ni tashkil etdi, shundan tekstil va trikotaj mahsulotlari - 43,5 %, mashina va uskunalari 23,9 %, oziq-ovqat mahsulotlari - 19,8 %, qora va rangli metallar - 1,2 %, kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar - 0,8 %.



### MDH va boshqa xorijiy davlatlarning eksport tarkibi (2019-yil yanvar-oktabr)

Eksport tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %
<b>JAMI:</b>	<b>477 950,5</b>	<b>160,8</b>	<b>100,0</b>	<b>345 288,3</b>	<b>171,1</b>	<b>100,0</b>	<b>132 662,1</b>	<b>138,9</b>	<b>100,0</b>
Paxta tolasi	1 066,7	0,0	0,2				1 066,7	0,0	0,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	94 861,8	133,9	19,8	83 327,1	122,3	24,1	11 534,7	424,9	8,7
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	3 629,7	200,1	0,8	3 241,6	199,3	0,9	388,1	206,6	0,3
qora va rangli metallar	5 873,9	592,8	1,2	5 759,1	613,6	1,7	114,8	219,9	0,1
mashina va uskunalar	114 111,4	298,0	23,9	111 422,2	305,6	32,3	2 689,2	147,1	2,0
tekstil va trikotaj mahsulotlari	208 061,5	121,5	43,5	91 914,2	112,6	26,6	116 147,3	129,5	87,6
Xizmatlar	3 360,6	80,3	0,7	2 639,2	67,9	0,8	721,3	242,7	0,5
Boshqalar	46 979,1	485,7	9,8	46 979,1	514,8	13,6		0,0	0,0

### Eksport tuzilmasi dinamikasi (2019-yil yanvar-oktabr)

Eksport tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
<b>JAMI:</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Paxta tolasi	-	-	0,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	17,6	23,8	19,8
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	0,5	0,6	0,8
qora va rangli metallar	0,2	0,3	1,2
mashina va uskunalar	38,9	12,9	23,9
tekstil va trikotaj mahsulotlari	38,9	57,6	43,5
Xizmatlar	1,0	1,4	0,7
Boshqalar	2,8	3,3	9,8





Soʻnggi uch yil ichida eksport tarkibini diversifikatsiyalash dinamikasi kuzatilmoqda. Shunday qilib, tekstil va trikotaj mahsulotlari ulushi 4,6 foiz darajaga oʻsdi va 43,5 %, oziq-ovqat mahsulotlari - 2,2 %, qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar - 1,0 % va boshqalar – 7,0 % ni tashkil etdi. Qolgan pozitsiyalar eksport tarkibida mashina va uskunalar, energiya va neft mahsulotlari ulushining sezilarli darajada oʻsishi hisobiga pasayganligini koʻrsatmoqda.


### **Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksporti dinamikasi**

(yanvar-oktabr, ming AQSh doll.)

Mahsulotlar nomi	2018 y.	2019 y.
Kalava ip va gazlamalar	101329,4	123012,0
Tayyor tekstil kiyimlar	55065,0	64843,2
Tekstil matolar	1343,2	2818,2
Tikuvchilik mahsulotlari	1045,5	2057,6
Boshqa tekstil tayyor mahsulotlari	1074,0	1264,1
Maxsus gazlamalar	379,0	280,8
Ipak va shoyi gazlamalar	5241,9	10254,0
Gilamlar	4,8	1,3
Paxta, kiygiz va notoʻqima matolar	5822,3	4062,1

2019-yil yanvar-oktabr oylarida tekstil va trikotaj mahsulotlarini eksport hajmi 91,9 mln. AQSh dollarni tashkil etdi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 21,7 foizga oʻsdi, bu umumiy eksportning 43,5 foiziga etdi. Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksportining asosiy qismi paxta tolasi (59,0 %), shuningdek tayyor trikotaj va kiyimlar (31,1 %) hisoblanadi.

**Tovar va xizmatlarning import tarkibi,  
jamiga nisbatan ulushi foizda  
(2019-yil Yanvar-oktabr)**



2019-yil 10 oyida viloyatning import hajmi 1603,9 million dollarni tashkil etdi (oʻsish surʼati - 24,4 foiz). Uning tarkibida asosiy ulushni mashina va uskunalar, shu jumladan extiyot qismlar va butlovchi qismlar (63,8 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar (12,3 %), shuningdek qora va rangli metallar (8,4 %) eʼgallaydi.

**MDH va boshqa xorijiy davlatlarning import tarkibi  
(2019-yil yanvar-oktabr)**

Import tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh. doll.	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati %	Jamiga nisbatan ulushi %
<b>JAMI:</b>	1 603 886,6	124,4	100,0	180 262,8	119,1	100,0	1 423 623,8	125,1	100,0
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	198 524,7	156,1	12,4	15 358,7	124,4	8,5	183 166,0	159,4	12,9



qora va rangli metallar	135 120,5	151,1	8,4	80 038,0	136,1	44,4	55 082,5	180,0	3,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	9 728,9	102,7	0,6	8 074,7	98,7	4,5	1 654,2	127,5	0,1
mashina va uskunalar	1 023 104,5	113,2	63,8	27 725,1	167,5	15,4	995 379,4	112,2	69,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	13 476,2	43,3	0,8	9 297,3	36,8	5,2	4 178,9	71,0	0,3
Xizmatlar	124 158,0	198,1	7,7	4 176,7	226,5	2,3	119 981,3	197,2	8,4
Boshqalar	99 773,9	151,7	6,2	35 592,3	125,5	19,7	64 181,6	171,4	4,5

### Import tuzilmasi dinamikasi (2019-yil yanvar-oktabr)

Import tarkibi	2017 y.	2018 y.	2019 y.
<b>JAMI:</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	10,9	9,9	14,4
qora va rangli metallar	7,2	6,9	8,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,5	0,7	0,6
mashina va uskunalar	67,3	70,1	63,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,7	2,4	0,8
Xizmatlar	5,9	4,9	7,7
Boshqalar	5,5	5,1	6,2

### Mashina va uskunalar dinamikasi

(yanvar-oktabr, ming.AQSh.doll.)

Tarkib	2018 y.	2019 y.
Transport vositalari	678173,3	682883,9
Uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari	173622,3	222694,3



Tarkib	2018 y.	2019 y.
Elektr dastgoxlar va jixozlar, ularning qismlari	25575,4	66406,7
Boshqalar	26559,2	51119,6

2019-yil yanvar-oktabr oylarida mashina va uskunalar importi 1023,1 mln. AQSh. doll. ga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,2 % ga o'sgan. Viloyatning jami importidagi ulushi 63,8 %, Uning tarkibida asosiy ulushni transport vositalari (42,6 %), uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari (13,9 %), shuningdek, elektr dastgoxlar va jixozlar, ularning qismlari (4,1 %) e'gallaydi.

Viloyat eksportining asosini tekstil va trikotaj mahsulotlari, mashina va uskunalar tashkil etgan. Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida 291 ta eksport qiluvchi korxonalar mavjud bo'lib, ular tomonidan 40 ta uzoq va yaqin mamlakatlarga eksport amalga oshirilgan.

**Andijon viloyati statistika  
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy  
faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**

(71) 230-82-53